XALQ DEPUTATLARI ANDIJON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 26-avgust VII-3-86-1-29-K/25 Andijon shahar

Andijon shahridagi “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan geografik ob’ektlar nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024 yil 16 may kungi 05-19-01-1587-sonli bayoni hamda ekspert xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024 yil 16 may kungi 05-19-01-1587-sonli bayoni hamda ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan geografik ob’ektlar, ya’ni 26 ta qabristonlar, 11 ta ziyoratgoh, 3 ta bog‘ va 2 ta maydon nomlari to‘g‘risidagi takliflar ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Andijon shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muxit yaratish, kommunikatsiyalar, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirishmasalalari bo‘yicha o‘rinbosari K.Mamadaliyevga Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik ob’ektlarning nomlari davlat reestriga kiritish uchun tegishli hujjatlarni yuborish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Andijonnoma” gazetasida rasman e’lon qilinsin va Andijon shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ZIYAYEV RAXIM SABIROVICH

Xalq deputatlari Andijon shahar
Kengashining
2025-yil 26-avgustdagi
VII-3-86-1-29-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan geografik ob'ektlar, ya'ni 26 ta qabristonlar, 11 ta ziyoratgoh, 3 ta bog‘ va 2 ta maydonlarning nomlari

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1.	Qabriston	Sadoqat MFY	Shermuhammad qori	1994 yilda tashkil etilgan Shermuhammad qori ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan
2.	Qabriston	Guliston MFY	Bobo saddin	Bobo saddin qadimiy joy nomi 800 yilda tashkil etilgan
3.	Qabriston	Maydonbozor MFY	Buva tavakkil-ota	Buva tavakkil-ota ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan. 900 yilda tashkil etilgan
4.	Qabriston	O‘zgarish MFY	Yorkan shayx	Yorkan shayx 600 yilda tashkil etilgan
5.	Qabriston	O‘zbekiston 20yilligi MFY	Mangulik	1905 yilda tashkil etilgan mangu, abadiy
6.	Qabriston	Gumbaz MFY	Gumbaz	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
7.	Qabriston	Bo‘ston MFY	Eroniy	XVII asrda tashkil etilgan
8.	Qabriston	Obod MFY	Yakka tol	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
9.	Qabriston	Yorboshi MFY	Chilon mozor	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan 1920 yilda tashkil etilgan
10.	Qabriston	Ozodlik MFY	Qora qosh	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan 1920 yilda tashkil etilgan
11.	Qabriston	Andijon MFY	Yaxudiylar	1921 yilda tashkil etilgan bo‘lib yaxudiylar dafn etilgan
12.	Qabriston	Gumbaz MFY	Cho‘q mozor	Mahalliy aholi tomonidan 1918 yilda nom qo‘yilgan
13.	Qabriston	Jumabozor MFY	Qo‘chkorlik ota	Qo‘chkorlik ota , ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
14.	Qabriston	Buyuk ipak yo‘li MFY	Bog‘ishamol	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan

15.	Qabriston	Mirpo‘stin MFY	Mirpo‘stin ota	Mirpustin ota , ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
16.	Qabriston	Pistamozor MFY	Pistamozor	XV asrda tashkil etilgan Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
17.	Qabriston	Yaxshi MFY	Do‘stlik	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
18.	Qabriston	Andijon MFY	Evoy ota	Evoy ota ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan
19.	Qabriston	Taxtako‘prik MFY	Shikosin ota	Shikosin ota, ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan
20.	Qabriston	Mexnat MFY	O‘razan tepa	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
21.	Qabriston	Shifokor MFY	Bogi eram	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
22.	Qabriston	Xursandlik MFY	Xonakox	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
23.	Qabriston	Kayrag‘ochtagi MFY	Ermamat ota	Ermamat ota, ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan
24.	Qabriston	Bog‘i Eram MFY	Ibrat	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
25.	Qabriston	Bog‘ishamol MFY	Abdulaxad-xoji	Abdulaxad-xoji, ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan
26.	Qabriston	Nayza Qayrag‘och MFY	Qo‘sh tepa	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
27.	Ziyoratgoh	Gumbaz MFY	Yilqichi ota ziyoratgohi	Yilqichi ota ziyoratgohi, ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan
28.	Ziyoratgoh	Qalandarxona MFY	Yalang‘och to‘ra ziyoratgohi	Yalang‘och to‘ra ziyoratgohi, ismli shaxs yashab o‘tgan
29.	Ziyoratgoh	Maydonbozor MFY	Bobo Tavakkal ziyoratgohi	Bobo Tavakkal ziyoratgohi ismli shaxs yashab o‘tgan
30.	Ziyoratgoh	Mirpo‘stin MFY	Mirpo‘stin ota ziyoratgohi	Mirpo‘stin ota, ismli shaxs yashab o‘tgan
31.	Ziyoratgoh	Jumabozor MFY	Qo‘chqorli ota maqbarasi	Qo‘chqorli ota, ismli shaxs yashab o‘tgan
32.	Ziyoratgoh	Maorif MFY	Oq go‘r ota ziyoratgohi	Oq go‘r ota, ismli shaxs yashab o‘tgan
33.	Ziyoratgoh	Gumbaz	Yorkentli shayx ziyoratgohi	Yorkentli shayx ismli shaxs yashab o‘tgan
34.	Ziyoratgoh	Pistamozor	Pistamozor ota ziyoratgohi	Pistamozor ota, ismli shaxs yashab o‘tgan
35.	Ziyoratgoh	Zahiriddin Muhammad Bobur MFY	Usta pir ota ziyoratgohi	Usta pir ota ismli shaxs yashab o‘tgan

36.	Ziyoratgoh	Zahiriddin Muhammad Bobur MFY	Duvoxon aziz ziyoratgoh i	Duvoxon aziz ismli shaxs yashab o‘tgan
37.	Ziyoratgoh	Mirpo‘stin MFY	Shirinbuloq ziyoratgohi	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan
38.	Bog‘	Yangi turmush MFY	Alisher Navoiy nomidagi istirohat	Shoir Alisher Navoiy nomi berilgan
39.	Bog‘	Bog‘ishamol dahasi	Z. M.Bobur nomili istirohat bog‘i	Shox va shoir Z. M.Bobur nomi berilgan
40.	Bog‘	Mustaqillik MFY	Bolalar bog‘i	Bolalar uchun tashkil etilgan bog‘
41.	Maydon	Mustaqillik MFY	Zahiriddin Muhammad Bobur maydoni	Shox va shoir Z. M.Bobur nomi berilgan
42.	Maydon	G‘ayrat MFY	Xotira maydoni	Xotira maydon